Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum.
Yanoqlami tutib oltin b o‘sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum...

Nafis chayqaladi bir tup n a ’matak.
Shamol injulami separ chashmadak,
Boshida bir savat oq yulduz - chechak,
Nozik salomlari naqadar ma’sum!
Tog‘lar havosining firuzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalaming ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup n a ’matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

Awalo, «Na’matak» she’ri yozilgan yilga e ’tibor qaratamiz. 1936- yil. Sobiq sho‘rolar davlati, jumladan, O‘zbekistonda ham «sotsialistik tuzumga qarshi kuchlar», «xalq dushmanlari»ni fosh qilish harakatlari avjga chiqayotgan bir palla. Xalq, millat qayg‘usida ijod qilgan va qilayot gan jadid ziyolilari, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat singari erk kuychilarini yoppasiga qoralash oddiy holga aylangan. 1927- yildayoq ustozi Cho‘lpon haqidagi b o‘htonlarga qarshi maqola yozgan, 30- yillar o‘rtalarida esa «Abdulla Qodiriyning ijodiy y o‘li» degan risolasi bilan ulug‘ yozuvchi himoyasiga chiqqan Oybekka nisbatan munosabat ham nihoyatda salbiy va xavfli. Mana shu sharoitda shoir: «viqor-la o‘shshaygan qoya labida», «quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul», - deya nafis chayqalayotgan na’matakning mag‘rur timsolini chizadi.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:** mavzu bo‘yicha qisqa suhbat va muhokama o‘tkazish, qahramonlar yoki voqealar haqida fikr bildirishni so‘rash.

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**Mavzu: Xayriddin Sultonov: “Saodat sohili” qissasi**

**Maqsadlar:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

**Mashg’ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar. rag‘bat kartochkalari.

**Mashg‘ulotning metodi:** an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg’ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e’tiborni ta’minlash, to‘garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg’ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

**SAODAT SOHILI** *(Qissadan parcha)*

- Usta Binoqul, qani turing, shorn tushmay huv dovonga yetib olaylik! O‘sha dovonga yetaylik, u yog‘i - yo Razzoq!

- Uh, taqsir, oyoq bosgulik holim qolmadi. Yurolmayman, taqsir, yurolmayman!

-Andak bardosh qiling, usta Binoqul! Chekkan mashaqqatlarimiz, inshoolloh, besamar ketmas! Ajab emaski, dovon ortida biror qo‘nalg‘a bo‘lsa... Shu manzilga yetib olsak bas, jarohatingizga ham bir davo toparmiz. Qani, qo‘lingizni bering, usta Binoqul! - Ehhh, taqsir... Uch kundan buyon ahvol shu: usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi, har qadamni ming bir azob bilan qo‘yadi. Hofiz Ko‘ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko‘proq o‘z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi, sabr-bardosh sari da’vat etadi. Binoqul ingraydi, og‘riqqa chiday olmay yig‘lagudek yolvoradi, Hofiz Ko‘ykiy go‘dakni aldagan kabi uni yupatmoqqa tirishadi, “ko‘pi ketib, ozi qolgani”ni aytib ishontirmoqchi, ishonmoqchi bo‘ladi, lekin bundan na yo‘l qisqaradi, na yo‘l azobi kamayadi. Ular o‘n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog‘lik bilan yo‘l bosdilar. Taglarida o‘ynoqlagan dulduldek otlar, xurjunlarning ko‘ziga to‘ldirilgan lazzatli ozuqalar belga quwat, dilga mador bo‘lib keldi. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo‘l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho‘lning o‘lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag‘ishlagandek bo‘lar edi. O‘n sakkizinchi kuni sahar chog‘i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi. Ular olatasir to‘polonda tog‘ unguri yoqalab qochishga muvaffaq bo‘ldilar.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:** mavzu bo‘yicha qisqa suhbat va muhokama o‘tkazish, qahramonlar yoki voqealar haqida fikr bildirishni so‘rash.

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

*Sana: “__” ________ 20__-yil. Sinflar: ______. To‘garak rahbari:_____ ____________________*

**Mavzu: “Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning” g’azali**

**Maqsadlar:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

**Mashg’ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar. rag‘bat kartochkalari.



Alisher Navoiy haykali.
Boku, 2008-yil

**Mashg‘ulotning metodi:** an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg’ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e’tiborni ta’minlash, to‘garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg’ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

**“KIMKI BIR KO‘NGLI BUZUG‘NING”**

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.
Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.
Yordin har kimki bir so‘z der, tuganmasdin burun
Istaramkim, awalidin yona bunyod aylagay.
Yor hijronidin o‘lgumdur, bu nav ermish sazo
Ul kishigakim, biravga o‘zni mu’tod aylagay.
Necha sabr avroqi yozg‘ay ko‘nglum-u, bir oh ila
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.
Shayxdin zuhdi riyoyi kasb o‘lur, yo Rab, qani
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay.
Odam avlodida kamdur odamiyliq shevasi,
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.
Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tig‘i kin,
Yongilib awal mening jonimg‘a bedod aylagay.
Besha ichra devlar maqtuli o‘lsun, ey pari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:** mavzu bo‘yicha qisqa suhbat va muhokama o‘tkazish, qahramonlar yoki voqealar haqida fikr bildirishni so‘rash.

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

*Maktab MMIBDO‘________ ________________________sana____ _____________ 20__ yil*

**Mavzu: Xurshid Do'stmuhammad: "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi**

**Maqsadlar:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish.

**Mashg'ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar. rag'bat kartochkalari.

**Mashg'ulotning metodi:** an'anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e'tiborni ta'minlash, to'garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg'ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

**MIRKOMILBOYNING QAZO BO'LGAN NAMOZI**

Izvosh guzardan o'tib, katta ko'chaga burildi hamki, Yoqubxo'jadan sado chiqmadi. Boy ikki-uch dafa hamrohining avzoyiga zimdan ko'z yugurtirdi. Yoqubxo'janing qaddi unikidan yarim qarich tik, shu bois u o'tirgan holida ham xiyla salobatli ko'rinadi. Odamlar "Yoqubboyning shaxsiy qo'riqchisi", deb gap tarqatishdi, "Mirkomil uning izmidan chiqmaydi", deganlar ham bo'ldi. To'g'ri, Yoqubxo'ja ko'z ochib topgan maslahatgo'yi bo'lmasa-da, uncha-bunchani xushlayvermaydigan Mirkomilning ishqi shu odamga tushgan, binobarin, yonida doim uni olib yurishga odatlangan edi. Haqiqatan, uning Yoqubxo'jadan yashirgan-netgan siri bo'lmagan. Surishtirib kelganda, Mirkomil kimdan, nimani sir tutgan o'zi!.. Quv yoxud makkor bo'lganida, rahmatli otasining Makka va Madinada takya qurdirish niyatida o'ttiz ming tillo vasiyat qilib qoldirganini uyezd hokimiga aytarmidi?! Soyasidan cho'chisa, hatto o'z pushtikamaridan bo'lgan o'g'il qizlaridan hadik-xavotirda yashasa, yetti yot begona, buning ustiga, g'ayridin Iskandarni qilib olarmidi?! Ikki ko'zning biri yanglig' yonidan uzoqlashmaydigan Yoqubxo'jadan ham gumondor yursa, ishlagan uni do'stmi-dushmanmi deya bosh qotirsa... odamning har narsa bo'lgani yaxshi emasmi!.. Yo'q, Mirkomilning bunday mujmallikka toqati yo'q - u jini suyganga ham, suymaganga ham dilidagini yamlamay aytgan. Izvosh ko'tarmadagi zavod ko'chasi muyulishiga yetdi, boy "ana yorilar, mana yorilar" degan o'yda hamrohining quyuq soqoliga qarab qoldi. Shunda: - To'xtat izvoshni!.. - deya hayqirdi boy.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:** mavzu bo'yicha qisqa suhbat va muhokama o'tkazish, qahramonlar yoki voqealar haqida fikr bildirishni so'rash.

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**Mavzu: Usmon Nosir. "Yoshlik" she'ri**

**Maqsadlar:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish.



**Mashg'ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar. rag'bat kartochkalari.

**Mashg'ulotning metodi:** an'anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e'tiborni ta'minlash, to'garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg'ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

**YOSHLIK**

Kunlarimni yoshligimdan ayamadim,
Menda yoshlik nokaslikni hech ko'rmadi.
Qiz sevganda ho'ngir-ho'ngir qon yig'ladim,
Go'yo qalbim amri - azmimni bir so'rmadi.
Yoshligimning tarozusi beposangi,
Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir:
Sevinchim ko'p... shodligim zo'r... tilim biyron,
Qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir?
Yuragimga achchiq-achchiq botar edi
Bog' ko'chada sharsharakning mungli kuyi...
Hayron bo'lib bolalikda o'ynar edim,

Qaydadir deb bu oftobning yotar uyi?
Bolaligim gul bog'larni ko'rolmagan,
G'arib bo'lib, mungsib yurgan ko'chalarda.
Yulduz sanab yildan uzun kechalarda,
Hisobiga sira, azal yetolmagan.
Ayamadim yoshligimdan kunlarimni,
Nokaslikni ravo ko'rmay, sevintirdim,
Chunki unga yuragimda o'lib qolgan
Bolaligim erkaligin tiriltirdim.
Yoshligimning sarguzashti benihoyat,
Bisoti ham tasodifga to'lib bitgan...
Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan,
Hodisani yetaklarkan sababiyat.

1934-yil, Toshkent

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. She'rdan nimalarni uqdingiz?
2. "Kunlarimni yoshligimdan ayamadim, Menda yoshlik nokaslikni hech ko'rmadi", deganda shoir nimani nazarda tutmoqda?

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

*Sana: “__” _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To‘garak rahbari:_________________________*

**Mavzu: O‘ Genri hayoti va ijodi**

**Maqsadlar:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

**Mashg’ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar. rag‘bat kartochkalari.

**Mashg‘ulotning metodi:** an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg’ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e’tiborni ta’minlash, to‘garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg’ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**



O. Henri (taxallusi, asl ismi - Uilyam Sidni Porter) - jahon adabiyotida qisqa hikoyalari bilan o‘chmas iz qoldirgan amerikalik yozuvchi. Uilyam Sidni Amerikaning Shimoliy Karolina shtatida shifokor oilasida 1862-yili dunyoga kelgan. Onasidan erta ayrilgach, ammasining qo‘lida tarbiyalandi. Bolalikda uning sevimli mashg‘uloti kitob o‘qish va odamlarni kuzatish edi. o‘rta maktabni bitirib, bir muddat dorixonada ishlagach, Uilyam Amerika g‘arbiga, Texasga ko‘chib o‘tdi va davlat xizmatida ishlash bilan birga hikoyalar mashq qila boshladi. O. Henrining adabiy faoliyatidagi eng sermahsul davr XX asr boshlarida Nyu Yorkka ko‘chib o‘tganidan keyin boshlandi. Bu yerda u oddiy amerikaliklar hayotidan so‘zlovchi 200 dan ortiq hikoya yozdi. Ijodkor 1910-yiIda vafot etgan. Biz o‘qiydigan hikoya “Yigirma yiidan so‘ng” deb nomianadi. Unda yigirma yildan so‘ng bir-biri bilan uchrashishga ahdlashgan ikki do‘st haqida hikoya qilinadi.

Politsiyachi posbon ko‘chadan vajohat bilan o‘tib borardi. U yakkam-dukkam uchraydigan yo‘lovchilarni hayratga solish uchun ataylab vajohatli ko‘rinayotgandir, balki bu unga odat bo‘lib qolgandir.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Voqea kechayotgan joy va payt tasviriga e’tibor bering. Bu tasvir o‘quvchida qanday kayfiyat uyg‘otadi?
2. O‘rtog‘ini kutayotgan kishi tasviridagi qaysi detallar diqqatingizni tortdi? Bu detallardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

*Maktab MMIBDO‘________ __________________________sana____ ______________ 20__ yil*

**Mavzu: Shukur Xolmirzayev: “O‘zbeklar” hikoyasi**

**Maqsadlar:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

**Mashg’ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar. rag‘bat kartochkalari.

**Mashg‘ulotning metodi:** an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

**I.Tashkiliy qism:** o‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, mashg’ulotga tayyorgarligini tekshirish, sinfda tartib va e’tiborni ta’minlash, to‘garak mavzusi va maqsadini aytish, mashg’ulotga faol ishtirok etishga undash.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

## O‘ZBEKLAR

Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinchi kursda paxtaga bordik. O‘sha Bo‘ka rayoniga. Chetdagi bir kolxoziga. Mana shu o‘zimizning Surxon vohasiga o‘xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoqlar o‘sgan. Bog‘-bog‘ yosh qamishni tagi bilan o‘tqazib qo‘yganday. Yeri jiqqa ajriqzor. Mol o‘tlaydigan, bolalar chillak o‘ynaydigan yer-da! Qadrdon, men uning o‘zimga, mana shu ko‘ngil qurg‘urga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da! Xullas, ana shu ajriqzordan sal o‘tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. Yigimna-o‘ttiz xonadon tursa kerak. Tomlari bari loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyilgan, yomg‘ir yog‘ib o‘tgan payt edi, pichanlar sap-sariq. Ba’zisining ustida yosh bolakaylar o‘tirardi. Bizni ko‘rib qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq ko‘chada mashinamiz to‘xtadi. O‘qituvchilar o‘zaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi. Bitta brigadiming bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashadigan bo‘ldik. Buyam shunchaki somonsuvoq qilingan. Deraza romlari yo‘q. Yerzax. Odatdagi... baraklardan farqsiz edi. Shuni aytish kerakki, savod masalasida ham ulardan kam emas, ba’zan balandlik ham qilib qolardik: har qalay o‘nni bitirib, to‘g‘ri institutga kirgan bolamiz. Bilimlar hali “svejiy”... Bundan tashqari, o‘zingizga ma'lum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental kutubxonaning faol o‘quvchilaridan. Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir... qishloqimiz-da, to‘g‘risi. Balki “uddalik” bobida ham ancha jo‘n edik.

**III.Yangi mavzuni mustahkamlash:** mavzu bo‘yicha qisqa suhbat va muhokama o‘tkazish, qahramonlar yoki voqealar haqida fikr bildirishni so‘rash.

**IV.Uyga vazifa:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

*Sana: "__" _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To'garak rahbari:__________________________*

**Mavzu: "Shubxa" hikoyasi haqida**

**Maqsadlar:**

O'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.




**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq:** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi

**Mashg'ulotning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg'ulotning vositalari:** o'quv dasturi, mashg'ulot rejasi, mavzuga oid ko'rgazmalar, xattaxta, texnik jihozlar.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**

"Shubxa" hikoyasida bag'ritosh, insoniy sifatlardan mahrum, nafs bandalari hamda ezgu tuyg'ular egasi, pokiza qalb insonlar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar mahorat bilan tasvirlangan. Banikontxalar xonadonida uch qiz o'sardi. Otasi Banikontxa birinchi qizini Shubxashini y a 'ni shirin zabon b o'lsin deb niyat qilgan qizlari gapirolmaydigan, til-zabonsiz tug'ildi. Qizcha ota-onasiga og'ir yuk b o'lib tug'ilganday sezar, shuning uchun odamlardan o'zini olib qochar, yolg'iz qolishga intilardi.

Odamlar ham gapirolmagan kishi his-tuyg'udan mahrumdeb o'ylashar, Shubxaning taqdiri haqida bechora qizning oldida ochiqchasiga gapiraverardilar. Biroq yozuvchi tasvirlaganidek, Shubxa "tildan mahrum b o'lsa-da, kelishgan, k o'zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug'yon urgan hislami aks ettirib gul bargiday titrab turardi". Yozuvchi soqov Shubxaning oilada, odamlar orasidagi hayotini tasvirlar ekan, qizcha qalbida kechgan xayollari, tuyg'ulari ifodasini g'oyat mahorat bilan yozgan.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. "Shubxa" hikoyasida qanday mavzu qalamga olingan?
2. Shubxa obraziga ta'rif bering. U qanday qiz va uni nimalar iztirobga soladi?

**V.Uyga vazifa**:

R.Thakurning yana qanday hikoyalari bilan tanishgansiz

*Maktab MMIBDO'________ __________________________sana____ ______________ 20__ yil*

*Sana: "__" _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To'garak rahbari: ____________________*

**Mavzu: Xalq og'zaki ijodi**

**Maqsadlar:**

a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va ko'nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq :** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq :**bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi

**Mashg'ulotning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg'ulotning vositalari:** o'quv dasturi, mashg'ulot rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash,hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** O'quvchilarning mashg'ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**




Fozil shoir 1872- yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani ga qarashli Loyqa qishlog'ida Yo'ldosh oilasida tug'ilgan. Yetimlikda o'sgan bo'lajak shoir cho'ponlik qilgan vaqtlarida do'mbira jo'rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan. Yigitlik chog'larida davrining taniqli baxshisi Yo'ldosh shoirdan doston aytish sirlarini o'rgangan. Ulkan iste'dodi tufayli o'zbek xalq dostonchiligini yangi bosqichga ko'targan.Fozil Yo'ldosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan va betakror iste'dodi bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan mukammal bo'lishiga erishgan. "Alpomish" dostoni nafaqat uning ijodida, balki o'zbek xalq dostonchiligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu dostonda o'zbek xalqiga xos eng ezgu sifatlar haqqoniy hamda ta'sirli aks ettirilgan. "Alpomish" dostonida xalqimizning azal-azaldan iymon-e'tiqod, or-nomus birligi yo'lida o'zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o'qib, o'ziga unashtirilgan Oybarchinning qalmoqlar orasida talashda qolmasligi, yurtdoshlarining begonalarga xor bo'lmasligi uchun jonini tikkan Alpomish bilan tanishasiz. Yaratganga iymon keltirgani va mo'minga do'st tutingani uchun Hakimbekning yonida turib o'zining iymonsiz yurtdoshlariga qarshi kurashgan Qorajon holatini anglab yetasiz. Yuksak insoniy fazilatlari bilan er yigitlardan qolishmaydigan Oybarchin va Qaldirg'och timsollariga qoyil qolasiz. "Alpomish" dostonida o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda, millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk mahorat bilan tasvirlangan.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Aziz o'quvchi! Agar siz o'zbek degan xalqni yuksaltirgan, uni dunyoga tanitgan axloqiy fazilatlar nimalardan iboratligini tuymoqchi, bobolaringizni olamga mashhur etgan ma'naviy sifatlarning ildizi qayerdanligini bilmoqchi, ajdodlarning or-nomus, so'zga egalik, bag'rikenglik va kechirimlilik kabi hislatlaridan o'rnak olmoqchi bo'lsangiz, dostonni diqqat bilan o'qib chiqing va asarni tushunib yetishga harakat qiling.

**V.Uyga vazifa: Mavzu yuzasidan savol javoblar o'tkazish o'qib kelish.**

*Maktab MMIBDO'_______ ______________________sana___ _______________ 20__yil*

*Sana: "__" _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To'garak rahbari: ____________________*

**Mavzu: Ogahiy lirikasidan g'azallar**

**Maqsadlar:**

a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va ko'nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq :** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq :**bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi

**Mashg'ulotning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg'ulotning vositalari:** o'quv dasturi, mashg'ulot rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash,hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** O'quvchilarning mashg'ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**



Mana, shoirning "navro'z" radifli g'azali matni bilan tanishdik. Bu she'r tabiat lirikasining go'zal namunasi sanaladi. Unda tashxis san'atidan foydalangan holda shoir bu bahoriy ayyomni madh etadi. Oldingi mavzularni o'rganish, lirik asarlarni tahlil qilish asnosida tashxis haqida yetarli tushunchaga ega bo'ldingiz. Dastlabki ikki baytda navro'z ayyomi jonlantirilib, u quyoshni baland qadr va martabaga yuksaltirdi va bu bilan yer yuzidan soyani ko'tardi, deb tasvirlanadi. U yurtga uch narsa: fayz, shodlik (nishot) va aysh bilan kirib keldi-da, bu uch xushbaxtlikni muhayyo qilib, ulardan elni bahramand qildi. Mazkur baytlarda navro'z o'zidagi bor yaxshi narsalarni boshqalarga chin ko'ngildan ulashayotgan va bundan o'zi ham g'oyat zavqlanayotgan tanti va saxiy kishiga qiyoslangan. Keyingi baytdagi tashxis ham yanada o'ziga xosdir: Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosi aniqlab olinadi: tarab – shodlik; tifl – bola, go'dak; tug'urdi – tug'di, dunyoga keltirdi; dahr – dunyo; zol – kampir. Demak, ushbu misralardan quyidagicha ma'noni uqish mumkin:

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Ogahiyning yetuk inson va iste'dodli adib bo'lib yetishuvida u voyaga yetgan muhitning ahamiyati to'g'risida mulohaza yuriting.

**V.Uyga vazifa:** Ogahiy hayoti va ijodini o'qib kelish

*Maktab MMIBDO'_______ ______________________sana___ _______________ 20__yil*

*Sana: “__” _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To‘garak rahbari: ____________________*

**Mavzu: Zokirjon Xolmuhammad O‘g‘li Furqat**

**Maqsadlar:**

a) ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va ko‘nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og‘zaki nutq :** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq :**bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi

**Mashg‘ulotning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg‘ulotning vositalari:** o‘quv dasturi, mashg‘ulot rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash,hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** O‘quvchilarning mashg‘ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**



Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat o‘zining lirik she’riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma’rifatchilik adabiyotining darg‘alaridan biri bo‘lgan hamda o‘zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo‘ygan zabardast ijodkordir. Shoir 1859- yilda Qo‘qonda sav dogar oilasida tug‘ilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad she’riyatga oshno, badiiy ijodga moyil kishi edi. Bo‘lajak shoir dastlabki ta’limni mahallasidgi maktabda oladi. Bir yilga yetmay “Haftiyak” va “Chor kitob”ni o‘qi tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini yod oladi, sal o‘tib, Navoiy mutolaasiga tutinadi. Kichik yoshidan qalam tutib, she’r mashq qila boshlaydi. Keyinchalik o‘zining eslashicha, husnixat ta’limini bolaligidanoq puxta egallagan Zokirjon quyidagi baytni to‘qqiz yoshida yozgan ekan: “Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim”. “Biyobongardiman Majnun kabi bir Layli yodida” kabi misralar orqali holini sharh etgach, maqta’da bu bayonlarni umumlashtirib, taxallusiga ham izoh berib o‘tadi.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Furqat umr yo‘lining qaysi jihatlari uning ijodida aks etganligini so‘zlang.
2. Shoirning ma’rifatchilik yo‘nalishidagi asarlari vujudga kelishi omillarini ayting.

**V.Uyga vazifa:** Furqat she’riyatidagi g‘urbat tushunchasi qanday ma’nolarni anglatishi to‘g‘risida fikrlaringizni bildiring.

*Maktab MMIBDO‘_______ ______________________sana___ _______________ 20__yil*

*Sana: "__" _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To'garak rahbari: ____________________*

**Mavzu: Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili**

**Maqsadlar:**

a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va ko'nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq :** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq :**bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi

**Mashg'ulotning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg'ulotning vositalari:** o'quv dasturi, mashg'ulot rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash,hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** O'quvchilarning mashg'ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**




Ruh — o'ta murakkab tushuncha. Ruhiyatga daxldor narsalarni bilish qiyin, ko'ngil bilan tuyish mumkin, xolos. Demak, ruh odamning ko'ngliga tegishli hodisa ekan. Inson aqli ruhni to'la tushunishga ojizlik qiladi. Qur'oni Karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi ta'kidlangan. Qachondir qilingan ish, bildirilgan fikr, so'zlangan so'z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e'tibor qaratiladi. Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirish mumkin bo'lmagan jihatlari tasviriga ko'p marta duch kelgansiz. Chunonchi, raqibini yiqitolmagan Alpomishga qarata Oybarchin tomonidan aytilgan: "Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi, siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi"so'zlari yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgani va shu vaqtgacha yiqitolmagan dushmanini ko'kka otgani sizga ma'lum.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz va tushunarsiz o'zgarishlarning sababi nima?

**V.Uyga vazifa:** O'tilgan mavzuni o'qib kelish

*Maktab MMIBDO'_______ ______________________sana___ _______________ 20__yil*

*Sana: "__" _________ 20__-yil. Sinflar: _______. To'garak rahbari: ____________________*

**Mavzu: Sohibqiron**

**Maqsadlar:**

a) ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va ko'nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

**Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:**

**Og'zaki nutq :** atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

**Yozma nutq :**bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

**Tinglab tushunish:** tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi

**Mashg'ulotning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Mashg'ulotning vositalari:** o'quv dasturi, mashg'ulot rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash,hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** O'quvchilarning mashg'ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**I.Tashkiliy qism:** Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II.Yangi mavzu bayoni:**




